

YANGI O‘ZBEKISTON – YANGI SOLIQ TIZIMI, YANGI NATIJALAR, YANGI REJALAR

TARAQQIYOT MEZONLARI

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Bir necha kundan keyin mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligini keng nishonlaymiz. Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz yaqinlashgani sayin beixtiyor istiqlolning ilk yillaridan to hozirgi kunga qadar erishilgan yutuqlar, yangilanishlar, xalqimiz dunyoqarashidagi o‘zgarishlar xayolimizdan o‘tadi. Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri bilan suhbatda: “Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta‘minlaydigan eng muhim mezondir”, – deya alohida e‘tirof etdi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, soliq yukini kamaytirish, uning ma‘murchiligini soddalashtirish va soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish tizim faoliyatining asosiy mezonlari hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda qanday amaliy sa‘y-harakatlar qo‘l kelyapti va ular qanday samaralar beryapti?

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sherzod KUDBIYEV bilan suhbatimiz ana shunday savol bilan boshlandi.



– Haqiqatan, mustaqilligimizning o‘tgan yillari mobaynida xalqimiz milliy o‘zligini anglab, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda milliy davlatchiligimizning zamonaviy huquqiy poydevori yaratildi va shu asosda barcha sohalarda o‘ziga xos milliy tizimlar shakllandi. Bugungi kunda esa yangi O‘zbekiston tarixi

yangicha mazmun-mohiyat bilan boyib boryapti. Istiqbol sari qo'yilayotgan dadil qadamlar, tarkibiy yangilanishlar, jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar uning zarvaraqlariga "oltin sahifa" bo'lib muhrlanmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat. Bu jarayonda iqtisodiy zanjirning muhim halqalaridan biri bo'lgan soliq tizimi barchaga teng va erkin raqobat sharoitini yaratishda kamarbasta bo'lishi kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yilda yangi soliq konsepsiyasining qabul qilinishi ana shu maqsadlarga erishishning strategiyasini belgilab berdi.

Tizimda yangi islohotlarni boshlab bergan mazkur konsepsiyadan oldingi holatga nazar tashlasak, **97 foiz** soliq to'lovchilar soddalashtirilgan rejimda faoliyat yuritib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi qariyb **60 foizga** yetgani holda, byudjet tushumlaridagi hissasi bor-yo'g'i **9,2 foizga** teng bo'lgan. Umumbelgilangan soliq to'lovchilar zimmasiga tushgan asosiy soliq yuki atigi **3 foizni** tashkil etgan.

Yaqingacha pensiya, maktab ta'limi va yo'l jamg'armalariga soliq to'lash, sug'urta badali, mol-mulk, QQS stavkalarining yuqoriligi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi katta yuk edi. Shuning uchun ularning **o'zlari istamagan holda, soliqdan qochish sxemasini tanlashga yoki soddalashtirilgan rejimda qolish uchun korxonalar ishchilari soni, ularga to'laydigan ish haqini sun'iy yashirishga hamda "konvert" orqali to'lashga majbur bo'lardi.**

Bugun esa, biznesda tamomila boshqacha muhit. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida butunlay yangi soliq ma'murchiligi yuzaga keldi. Birinchi navbatda, soliqlar turi **16 tadan 9 taga**, nazorat shakllari **13 tadan 2 taga** qisqartirildi.

Prezidentimiz joriy yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazgan tarixiy muloqotida soliq sohasidagi ko'pchilikning esidan ko'tarilgan holatlarni yodga solgani bejiz emas. Chunki, yaqingacha tadbirkorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan pensiya, maktab va yo'l jamg'armalariga 3,2 foizli yig'imlar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga mazkur yig'imlarni bekor qilish hisobiga har yili qariyb 6 trillion so'm mablag' qoladigan bo'ldi.

Mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga tushirildi, pandemiyadan ko'proq zarar ko'rgan tarmoqlarga ijtimoiy soliq 12 foizdan 1 foizga pasaytirilib, mol-mulk va yer soliqlari to'lovlaridan butkul voz kechildi. Bu esa, tadbirkorlarga ixtiyorida qolgan 2 trillion so'm mablag'ni biznes faoliyatiga sarflash imkonini yaratdi.

– Odamlar kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarni, jumladan, soliq yukidagi yengilliklarni sezar ekan, avvalambor, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonchi va rag'bati ortadi. Ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi yuksalishning eng qisqa yo'lidan borishni ta'minlaydi. Keyingi paytda tizimda bu borada qanday ishlar amalga oshirildi?

– Qisqa vaqtda sohani raqamlashtirish, jumladan, Ma'lumotlarni qayta ishlash markazini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, o'z navbatida, soliq to'lovchilarga ro'yxatdan o'tish, soliq rejimini tanlash, byudjet bilan munosabatlarini onlayn kuzatish, hisobotlarni

shakllantirish va topshirish, shaxsiy kabineti orqali dunyoning istalgan burchagidan soliq majburiyatlarini elektron tarzda bajarish imkoniyatini berdi.

Umumiy hisobda soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali – my.soliq.uz da 50 ga yaqin shu kabi masofaviy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Bularsiz bugungi soliq ma'muriyatchiligini va umuman, bugungi tizim faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.



Shu bilan birga, **yangi vositalar – elektron hisobvara-qfaktura, elektron shartnoma, onlayn nazorat kassa texnikalari, raqamli markirovka, mahsulotlarning yagona elektron milliy katalogi joriy etildi. Har qanday soliq nazorati tadbirlari oldindan ogohlantirish va inson omilisiz “Tahlila-tahlil” dasturi orqali 76 ta mezonni qamrab olgan segmentlash asosida amalga oshirilmoqda.**

Joriy etilayotgan raqamlashtirish jarayonida, jumladan, Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi “Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, 2019 yil 1 yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlari bosqichma-bosqich onlayn va virtual kassalardan foydalanishga o'tkazilyapti. Bugungi kunda 149,3 mingta xo'jalik yurituvchi subyekt 182,8 mingdan ortiq onlayn va virtual kassalar bilan ta'minlandi.

Mazkur qurilmalarni sotib olishda tadbirkorlik subyektlari xarajatlarini kamaytirish maqsadida birinchi bosqichda (2021 yil 1 yanvarga qadar) hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan foyda yoki yagona soliq to'lovi yoxud qat'iy belgilangan soliq summasini onlayn-NKMni o'rnatish uchun tegishli xarajatlar summasiga kamaytirish tarzidagi imtiyoz taqdim etildi. Natijada tadbirkorlik subyektlari 22,7 milliard so'm miqdoridagi byudjetga to'lashi kerak bo'lgan soliqlar hisobidan xarajatlarini qopladi.

– Tabiiyki, ko'rilgan chora-tadbirlar, sarflangan xarajatlar soliq to'lovchilar va soha faoliyatiga qanday samaralar keltirdi, degan savol tug'iladi.

– Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi odamlar hayotida, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiyaning kamaygani, davlat xizmatlarini ko'rsatish tezlashganida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu vazifalar ijrosi har bir tarmoq yoki soha idoralari tomonidan ta'minlanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2016 yilda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi 59 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib **11 foiz punktga pasaytirildi** yoki 48 foizga tushirildi. Bu, o'z navbatida, soliq tushumlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, 2016 yilga

nisbatan 2020 yilda tushumlar **3,3 barobar o'sdi** (2021 yilning birinchi yarim yilligida pandemiyadan oldingi 2019 yilning mos davriga nisbatan 1,6 marta ortdi).

Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan o'zini o'zi ish bilan band qilish instituti orqali qariyb 1 millionta yashirin sektordagi odamlar faoliyatini legallashtirishga erishildi.

So'nggi yillarda soliq tizimida uchta bo'g'in – Davlat soliq qo'mitasi, Davlat soliq boshqarmasi va Davlat soliq inspeksiyalari vazifalarining chegarasi aniq belgilab olindi. Avvallari qo'mita va boshqarmalar umumiy nazorat olib borish va soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanmas edi. Buning uchun davlat soliq inspeksiyalari mas'ul edi.

Endilikda inspeksiyalar zimmasida umumiy miqdori **16,6 foizga teng bo'lgan** mahalliy soliqlarni yig'ish (*yer, mol-mulk, suv, daromad va aylanmadan soliqlar*) vazifasi qoldi, xolos.

Davlat soliq qo'mitasi huzurida Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish inspeksiyasi tashkil etildi va **2020 yil iyun oyidan** qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarga xizmat ko'rsatish vazifasi davlat soliq boshqarmalariga o'tkazilib, byudjet tushumlarining mos ravishda **66,2 foizi va 17,2 foizi yoki jami 83,4 foizi** qo'mita va boshqarmalar tomonidan amalga oshirib kelinyapti. Bu mas'uliyat tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari chiqarildi.



– Mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan ezgu g'oya, tashabbuslar ko'p. Ular orasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak!” tamoyilining o'rni juda katta. Nazarimizda, tizimga transformatsiya qilinayotgan “Soliqchi – ko'makchi” tamoyili ham ana shunday maqsadning uzviy qismi hisoblanadi.

– Ushbu g'oyani hayotga tatbiq qilish maqsadida Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan soliq idoralarining tarkibiy tuzilmasi tubdan qayta isloh qilindi. Soha tarixida birinchi marotaba Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'limlari tashkil etildi. Pirovardida oldimizga qo'yilgan eng muhim vazifa, ya'ni fuqarolarimizning soliqdan qochishiga emas, balki uni ixtiyoriy to'lashga o'tishiga, tushumlarning kamayishiga emas, aksincha, o'sishiga erishilyapti. Birgina raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman,

tadbirkorlarning aylanma mablag'larini ko'paytirish maqsadida, yil boshidan bugungi kungacha **9 trillion so'm QQS manfiy ortiqcha to'lovlari qaytarildi.**

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda Prezidentimizning yana bir o'ziga xos ezgu tashabbusi – **“Mahallabay”** ishlash tizimi bizga yaqin ko'makchi bo'lmoqda. U aholi va tadbirkorlik subyektlari muammolarini tezkor hal etishning eng maqbul yo'lidir.

Binobarin, Davlat soliq xizmati organlariga birlashtirilgan 4-sektorlarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning **uch pog'onali “mahallabay” ishlash tizimi** joriy etilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublika miqyosida 4-sektor hududlarida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning **157 mingdan ortig'i** ish bilan ta'minlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 1 956 ta MFYning har birida 2 tadan, jami 3 912 ta inkubator tashkil etildi.

– Sohada teng va keng raqobat sharoitini yaratish ustuvor vazifalar sirasiga kirishini qayd etgan edingiz. Bu borada va ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari huquqlarini kafolatlashni takomillashtirish masalasida amalga oshirilayotgan ishlardan ko'zlangan maqsad nimaligini tushuntirib o'tsangiz.

– Prezidentimiz yaqinda “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash xususida so'z yuritarkan, “Biznes ahli haqida faqat soliqlarni to'lash va tekshirishlar paytida eslaydigan zamonlar o'tib bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, soliq qonunchiligini maqbullashtirish borasida biz ancha ish qildik, lekin hali oldimizda yana-da katta vazifalar turibdi va biz ularni albatta amalga oshiramiz”, deya ta'kidladi.

Chindan ham, bugun O'zbekistonda tadbirkorlik uchun keng va teng raqobat maydonida erkin faoliyat yuritish imkoniyati, jozibador investitsiya muhiti vujudga kelmoqda. Mamlakatimizning investitsiyaviy muhitini yana-da yaxshilash, adolatli raqobat tamoyillarini joriy etishni ta'minlash hamda soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish amaliyotini tartibga solish maqsadida **45 ta qonun** hujjatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, 10 ta o'z kuchini yo'qotgan, deb e'tirof etilgan qonun hujjati orqali qator soliq va bojxona imtiyozlari amaliyotdan chiqarildi. Natijada **84 ta turli soliq imtiyozlari bekor qilindi.** Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Xorijiy sarmoyadorlar ulushida tashkil etilgan korxonalar soni **4 yilda 2,6 barobarga ko'paydi va 13,2 mingga yetdi.**

Sohada teng raqobat sharoitini yaratish va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari huquqlarini kafolatlashni takomillashtirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad turli rejimlardagi soliq to'lovchilar uchun mavjud imkoniyatlarni tenglashtirish hamda insofli soliq to'lovchilarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ortiqcha to'lovlarni qaytarish jarayoni uchun talab qilinadigan vaqtni minimallashtirishdir.

Mazkur tadbirni amalga oshirish doirasida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 avgustdagi qarori bilan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risida nizom tasdiqlanib, QQS summasini tezlashtirilgan tartibda faqat ishonchli soliq to'lovchilarga qaytarish belgilab qo'yildi.

Qo'shilgan qiymat solig'i salbiy farq summasini qaytarish haqida gap ketarkan, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ham bu masala ko'tarilganini, soliq tizimini takomillashtirish, biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirishga doir muhim yo'nalishlar belgilanganini ta'kidlash joiz. Uchrashuvda ilgari surilgan har bir g'oya, taklif va

tashabbus majoziy ma'noda aytganda, "siyohi qurimasdan" amalga oshib, yechimini topmoqda. Bunga Prezidentimiz tomonidan muloqot o'tgan kunlariyoq imzolangan "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish to'g'risida"gi va "Umumiy ovqatlanish va turizm sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlaridagi imtiyoz va yengilliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Xususan, **2021 yil 31 dekabr**ga qadar umumiy ovqatlanish korxonalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va ularning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan ozod qilinadi, **2023 yil 1 sentyabr**ga qadar turistik (mehmonxona) yig'imini hisoblash va to'lash to'xtatiladi.

– Mamlakatda yaratilgan biznes sharoitlari takomillashib borgani sari salohiyatli kadrlarga ehtiyoj ortib boraveradi. Tizimda mazkur muammoni hal etish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilyapti? Joriy etilgan komplayens-nazorat tizimi qanday masalalarni hal etishda yaqin ko'makchiga aylanishi kutilyapti?

– Mamlakatimiz iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda tizim uchun bugungi kun talabiga javob beradigan, yosh, yangi avlod kadrlarini tanlash, tarbiyalash va malakali etib tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda, Prezidentimiz tashabbusi bilan Davlat soliq qo'mitasi huzurida **Fiskal institut tashkil etildi** va joriy yildan ilk bor qabul jarayonlari olib borilmoqda. Uning o'quv dasturlari nufuzli oliy ta'lim institutlari va xalqaro miqyosda qo'llaniladigan tamoyillarga muvofiq ishlab chiqildi.

Bugungi kunda tizimdagi o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 2516 nafar xodim oliy ma'lumotga ega bo'lish istagida Fiskal institutga hujjat topshirdi. Shuningdek, tizimda ishlovchi xodimlarning malaka va kasbiy bilimni oshirish maqsadida 2021 yilning o'tgan davrida 3 ta yo'nalishda o'quv kurslari tashkil qilindi va jami 2 984 nafar xodim o'qitildi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning qat'iy pozitsiyasi mavjud. Bu borada komplayens-nazorat tizimi joriy etilgan. Sohada korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va faoliyat shaffofligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani "**CERT International**" ixtisoslashgan xalqaro tashkiloti auditorlari xulosasida ham qayd etildi. Shu yil 23 avgust kuni ushbu tashkilotning **Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparatiga ISO37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha sertifikati topshirildi.**

Hali oldinda o'zaro munosabatlarda inson omilini keskin kamaytirib, sohaga raqamli texnologiyalarni yana-da keng joriy etish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmalar darajasini qisqartirish, umumbelgilangan deklaratsiya tizimiga o'tish, xalqaro andozalardagi xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish, halol tadbirkorlik subyektlarini yana-da qo'llab-quvvatlash, yer va ko'chmas mulklarni elektron ruyxatga olish va baholash kabi qator strategik vazifalar ijrosini ta'minlash mas'uliyati turibdi va biz ularni hal etishga qat'iy bel bog'lab kirishganmiz.

Fursatdan foydalanib, xalqimizni, himmatli tadbirkorlarimizni Mustaqilligimizning 30 yillik bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Soliq idoralari xodimlari o'z zimmalaridagi burch va ishonchni, albatta, amaliy ishlari bilan oqlaydi, mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy ravnaqi yo'lida hormay-tolmay xizmat qilaveradi.

[“Yangi O‘zbekiston” gazetasi, #174 28.08.2021-y.](#)

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Abdurauf QORJOVOV suhbatlashdi.